Sintaksis haqida umumiy ma’lumot

Ismoilova Nodira Usmonjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Xusniddinova Muxtaramxon Saloxiddin qizi
Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sintaksisning tilshunoslikdagi o‘rni, uning asosiy birliklari hamda zamonaviy sintaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sintaksis va morfologiya munosabati, gap va so‘z birikmasining farqli jihatlari, predikativlik, matn sintaksisi va pragmatik yondashuv masalalari haqida so’z boradi. Shuningdek, o‘zbek va jahon tilshunosligidagi muhim sintaktik maktablarning qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: sintaksis, gap, so‘z birikmasi, predikativlik, pragmatika, generativ grammatika, matn sintaksisi, valentlik, tema-rema.

Annotation.This article analyzes the role of syntax in linguistics, its main units, and modern syntactic approaches. The study examines the relationship between syntax and morphology, the differences between sentences and word combinations, predicativity, text syntax, and pragmatic approaches based on scientific sources. In addition, the views of important Uzbek and world linguistic schools are comparatively analyzed.

Keywords:syntax, sentence, word combination, predicativity, pragmatics, generative grammar, text syntax, valency, theme-rheme.

Аннотация.В данной статье анализируются место синтаксиса в языкознании, его основные единицы и современные синтаксические подходы. В ходе исследования были изучены взаимосвязь синтаксиса и морфологии, различия между предложением и словосочетанием, вопросы предикативности, синтаксиса текста и прагматического подхода на основе научных источников. Также проведён сравнительный анализ взглядов узбекских и мировых лингвистических школ.

Ключевые слова:синтаксис, предложение, словосочетание, предикативность, прагматика, генеративная грамматика, синтаксис текста, валентность, тема-рема.

Kirish. Til insoniyatning eng muhim aloqa vositalaridan biri hisoblanadi. Tilning ichki tuzilishi murakkab tizim bo‘lib, biz ularning sarasiga:

- **Fonetika;**
- **Leksikologiya;**
- **Morfologiya;**

Sintaksis kabi bir necha sohalarni kiritishimiz mumkin. Shu sohalar orasida sintaksis alohida o‘rin egallaydi. Chunki inson o‘z fikrini ifodalashi, nutq hosil qilishi va aloqaga kirishish orqali maqsadga erishishi aynan sintaktik birliklarga bog’liqdir. “**Sintaksis**” atamasi yunoncha **“syntaxis**” so‘zidan olingan bo‘lib, **“tuzish”, “biriktirish”** degan ma’nolarni anglatadi. G’.Abdurahmonov sintaksisni tilning faol grammatik sathi sifatida talqin qilib, unda gap va so‘z birikmalarining tuzilishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilishini ta’kidlaydi. A.Nurmatov va boshqa tilshunoslarning fikriga ko’ra sintaksisni til birliklarining grammatik aloqaga kirishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida o’rganiladi.

V.Vinogradov esa sintaksisning asosiy vazifasi so‘zlarning gap va so‘z birikmasi tarkibida bog‘lanish usullari, ularning qo‘llanish sharoiti hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratligini e’tirof etadi. Uning qarashlarida **predikativlik, grammatik tuzilish** va **intonatsiya** gapning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Sintaksis tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Morfologiya so‘z shakllarini o‘rganadi shu bilan bir qatorda aynan shu shakllarning nutq jarayonidagi vazifasi va o‘zaro munosabatlarini tadqiq qilish sintaktik jarayon hisoblanadi. Shu sababli sintaksisga tilning dinamik tomoni sifatida ham qarashimiz mumkin.

Hozirgi zamon tilshunosligida sintaksis faqat gap qurilishi bilan cheklanib qolmaydi. Bu sohaning yanada kengayganligiga misol qilib matn sintaksisi, pragmatik sintaksis, funksional sintaksis kabi yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishini keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, N. Mahmudov va A. Nurmonov sintaktik birliklarning semantik hamda pragmatik jihatlariga e’tibor qaratib, sintaksisni kommunikativ yani o’zaro aloqaga kirishish jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydilar.

Tilshunoslik olamida sintaksisning chuqur o’rni borligiga yana bir misol sifatida uning jahon tilshunoslik maydonida ko’p muhokamalarga sabab bo’ganligi va turlicha fikrlar ilgari surilganligini keltirishimiz mumkin. Shu munosabat bilan mazkur maqolani tayyorlash jarayonida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalangan holda o‘zbek va jahon tilshunosligiga oid ilmiy manbalar o‘zaro solishtirish, qolaversa sintaksisning asosiy nazariy qarashlari umumlashtirish maqsadga muofiqdir. Qiyosiy-tahliliy metod orqali G‘. Abdurahmonov, A. Nurmatov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev kabi o‘zbek tilshunos mutafakkirlarining qarashlari V.V. Vinogradov, L. Shcherba, Leonard Bloomfield va Noam Chomsky nazariyalari bilan qiyoslash mumkin. Tavsifiy metod yordamida esa gap, so‘z birikmasi, predikativlik, valentlik va sintaktik aloqa turlari haqida mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilamiz. Nazariy umumlashtirish usuli orqali turli sintaktik maktablarning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlab, yagona ilmiy xulosaga kelishga harakat qilamiz.

Tahlil qilingan manbalardagi ma’lumotlar orqali shuni ko‘rishimiz mumkin-ki, sintaksis tilning eng faol va murakkab sohalaridan biridir, jumladan **so‘z birikmasi, gap** va **matn** sintaksisning asosiy birliklari sifatida e’tirof etiladi. Quyida tahlil natijalarini muhokama qilamiz:

Gap va so‘z birikmasi. So‘z birikmasi nominativ yani birlik hisoblanadi. U murakkab tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Gap esa kommunikativ birlik bo‘lib, tugallangan fikrni ifodalaydi. Abdurauf Fitrat gapni “bir fikrni bildiruvchi so‘zlar yig‘indisi” sifatida izohlaydi va kesim gapning markaziy qismi ekanini ta’kidlaydi.Lev Shcherba gapni tafakkurning grammatik shakli deb hisoblaydi. Leonard Bloomfield esa gapni nutqdagi eng katta mustaqil grammatik birlik sifatida talqin qiladi. Bu qarashlar gapning nafaqat grammatik, balki kommunikativ va psixologik xususiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Predikativlik. Predikativlik gapning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. V.Vinogradov predikativlikni gapning voqelik bilan bog‘lanishini ifodalovchi hodisa sifatida izohlaydi. Predikativlik zamon, modallik va shaxs-son turkumlari orqali yuzaga chiqadi. G‘ozi Olim Yunusov ham ega-kesim munosabatini predikativlikning asosi deb biladi. Uning qarashlari keyingi sintaktik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos qilib olishimiz mumkin.

Sintaktik aloqa va valentlik. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi sintaktik aloqa orqali amalga oshadi. O‘zbek tilshunosligida moslashuv, boshqaruv va bitishuv asosiy sintaktik aloqa turlari sifatida o‘rganiladi. R.Rasulov va I.Qo‘chqortoyev valentlik nazariyasiga alohida e’tibor qaratib, fe’lning boshqa birliklarni o‘ziga biriktirib, bog’lab olish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Valentlik nazariyasi sintaktik birliklarning semantik imkoniyatlarini tushunishimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn sintaksisi va pragmatika. N.Mahmudov matn sintaksisini gap sintaksisidan kengroq tushuncha sifatida o’z qarashlarini ilgari suradi. Uning takidlashicha, nutq jarayonida sintaktik birliklar pragmatik vazifa bajaradi. Masalan, “Siz kelasiz” gapi oddiy xabar ma’nosini bildirsa, nutq vaziyatiga va intonatsiyaga qarab u savol yoki buyruq mazmunini ham anglatishi shubhasizdir. Bundan hulosa qilish mumkinki sintaktik birliklarning faqat grammatik shakl emas, balki pragmatik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq ekan. A.Nurmonov sintaktik birliklarni nafaqat shakliy, balki mazmuniy munosabatlar bilan bog’lagan holda o‘rganish kerakligiga ishora qiladi. Qo‘shma gapni hosil qilgan qismlar orasidagi semantik aloqalar aynan shu yondashuv orqali chuqurroq tushuntirilishini hulosalash mumkin. Sh.Rahmatullayev **tema-rema** munosabatiga alohida e’tibor qaratadi. Unga ko’ra gapdagi

tema-rema bu qo'shma gap qismlaridagi ma'lumot va axborotning qanday taqsimlanganligini bildiradigan tushuncha bo'lib, gapning kommunikativ vazifasi aynan tema va rema orqali ochiladi.

Sintaksisning nazariy asoslari turli tilshunoslik maktablarida turlicha talqin qilingan. Strukturalizm tilni murakkab tizim sifatida baholasa, funksional tilshunoslik til birliklarining kommunikativ vazifasiga ko'proq e'tibor qaratadi.

A.K. Borovkovning fikricha o'zbek tili sintaksisini strukturaviy yondashuv asosida o'rganib, markaziy sintaktik aloqa sifatida ega-kesimni ajratib ko'rsatadi. Bu yondashuv rasmiy grammatika uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Noam Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasi esa sintaksisni yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Chomsky nazariyasiga ko'ra, gap ikki xil strukturalardan tashkil topgan bo'lib, bular chuqur va sirtqi strukturalar hisoblanadi. Transformatsion tarzda bir shakldan ikkinchi shaklga o'zgarish qoidalar yordamida cheklangan grammatik vositalar orqali cheksiz gaplar hosil qilish mumkin. Generativ grammatika sintaksisni matematik va rasmiy model sifatida izohlashga harakat qiladi. Shu jihatdan kelib chiqib hulosa qilish mumkin-ki, u an'anaviy sintaksisdan farq qilar ekan. An'anaviy tilshunoslikda ko'proq gapning tayyor shakli tahlil qilinsa, generativ grammatikaning asosiy vazifasi sifatida gapning hosil bo'lish mexanizmini tushuntirishga intiladi deyishimiz mumkin. Pragmatik yondashuvlarda esa gapning kommunikativ maqsadi muhim o'rin tutadi. N.Mahmudov gapning **axborot berish**, **so'rash** va **buyurish** kabi kommunikativ vazifalarini sintaktik tahlilning muhim qismi sifatida baholaydi.

Bizning tahlillarimizga ko'ra, zamonaviy sintaktik tadqiqotlarda pragmatik yondashuvning kuchayishi sintaksisni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki kommunikativ hodisa sifatida ham talqin qilishga bo'lgan zarurat kuchli ekanligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda matn sintaksisi va korpus lingvistikasi bilan bog'liq tadqiqotlar ham kengaymoqda. Sun'iy intellekt tizimlari, mashina tarjimasi va avtomatik tahlil jarayonlari sintaktik modellarning yanada osonroq o'rganish bilan bir vaqtda sohani yanada chuqurroq o'rganishni va murakkabroq izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillarimiz natijasida sintaksis tilshunoslikning eng muhim va doimiy rivojlanib borayotgan bo'limlaridan biri ekanini ko'rib chiqdik. Sintaksis nafaqat gap qurilishi bilan bog'liq hodisalarni, balki tilning kommunikativ, semantik va pragmatik xususiyatlarini ham qamrab olishi, sintaktik jarayonlarning naqadar muhimligidan dalolat beradi. O'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonov, A. Nurmatov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ushbu sohadagi izlanishlari va ilmiy qarashlari o'zbek tili sintaksisining rivojlanishiga behisob hissa qo'shdi. Jahon tilshunosligida esa V.V.Vinogradov, Leonard Bloomfield va Noam Chomsky ishlari sintaksisning dastlabki nazariy tamoyillari va nazariy asoslarini kengaytirish uchun xizmat qilgan. Sintaksisning zamonaviy yo'nalishlari orasida matn sintaksisi, pragmatik sintaksis va generativ grammatika kabi birliklarning alohida ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi tahlillar natijasida isbotlashimiz mumkin. Ayniqsa, tilning kommunikativ vazifasini o'rganish bugungi tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Yuqorida keltirilganlarni barchasini jamlasak, sintaksis tilning faqat grammatik qatlami emas, balki inson tafakkuri va nutq faoliyati bilan bog'liq murakkab tizimi ekanligining guvohi bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, G'. (1974). *O'zbek tilining hozirgi zamon sintaksisi*. Toshkent: O'qituvchi.
https://www.bing.com/ck/a?!&&p=da5a50120fa5915cbaddf368b65125519634b747a13a0f36102320889e2f5fa7JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

2. Arutyunova, N. (1988). *Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт*. Moskva.
https://www.booksite.ru/fulltext/arutunova

3. Chomsky, N. (1957). *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton.
https://www.bing.com/ck/a?!&&p=0eeed0e0b93b3675c85febe92e918ce60614a4a5f1d09b80c67ab692c

569bb84JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-d0ebb2b06b3a&psq=Chomsky%2c+N.+(1957).+Syntactic+Structures.+The+Hagu

4. G‘ofurov, I., & Madalieva, O. (2021). *Matn sintaksisi va funksional tahlil*. Toshkent. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=50351b41c1a7c1a95bc89f7e593a5ac09beb618b27ca9e4f73ed9c454c598904JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

5. Kiefer, F. (1985). “О роли прагматики в лингвистическом описании”. *Новое в зарубежной лингвистике*, XVI. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=f54edbf0640b1490a7e0884a01d69fe30952881239d52eb1f007fc15fac2e642JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f- w

6. Lomtev, T. (1979). *Структура предложения в современном русском языке*. Moskva. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=8aa1170cc178690c8091499eb875ff44b47f8f3c05a12a13aa85125eb169dec2JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

7. Madvaliev, A. (1980). *Murakkab gaplar sintaksisi*. Toshkent: Fan. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=741e2bb9902e90306ba5d318db19f97c4ee5d5438bfccf5d3e788f265d6610a2JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

8. Ne’matov, H., & Bozorov, O. (1993). *Til va nutq*. Toshkent: O‘qituvchi. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=3f2679287dd04f6369ecb115ae9b50ed454bd7576059b81d29fd4fbbb3234de3JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

9. Nurmatov, A. va boshqalar. (1992). *O‘zbek tilining nazariy sintaksisi*. Toshkent: Fan. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=c8f560e11fed8d2f8626c34d295829d8db5a21b77a2cda5059f8715fb57d35e0JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-

10. Sodiqov, A. (1982). *O‘zbek tilining gap bo‘laklari*. Toshkent: Fan. https://www.bing.com/ck/a?!&&p=5fbf7f06571ea165c67678ff85a3a9d294056fba6cdb88c0015f40d40930b5a3JmltdHM9MTc3ODQ1NzYwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=25adc673-b360-6ac2-195f-